

Xorijiy Mamlakatlarda Erkin Iqtisodiy Zonalarning Jahon Bo'yicha Tarqalishi Va Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilishdagi Tutayotgan O'Rni

A. Ne'matov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

M. Egamov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O. N. Xaitov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati, ularning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalganidan ham ko'rinadi. Hozirgi paytda erkin iqtisodiy zonalar dunyoning barcha qit'a va regionlarida mavjud. Iqtisodiy taraqqiyotga yuz tutgan barcha davlatlar o'z taraqqiyotini jadallashtirish uchun erkinlashtirishning buyuk quroli bo'lgan erkin iqtisodiy zonalar mexanizmidan foydalanishga harakat qilmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan turli chora - tadbirlar qo'llaniladi. Jahon amaliyotida mazkur masalada katta yutuqlar to'planganligini alohida qayd yetib o'tish lozim. Shular jumlasida erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va rivojlantirilishi o'ziga xos o'rin tutushini nazarda tutsak, bunday hududlarning ahamiyati va ularni tashkil etish asoslarini tadqiq qilishning dolzarbligi haqida aniq va batafsil xulosaga ega bo'lish mumkin.

Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda va iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirishda EIZlarni tashkil etishning ahamiyatini quyidagilardaifodalash mumkin:

- mamlakatda investitsiya faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- mamlakat iqtisodiyotiga ichki va tashqi investitsiyalarning keng turda jalbetilishi va turli mulk shaklidagi xo'jalik sub'ektlari faoliyatining rivojlanishiga imkon beradi;
- milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiyotga interatsiyasi jadallashuvinita'minlaydi;
- milliy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish ko'lami va sifatining oshishiga ta'sir ko'rsatadi;
- ish bilan bandlik va aholining intellektual salohiyati oshishiga ta'sir ko'rsatadi;
- milliy daromadning oshishi va ichki moliyaviy va valyuta zahiralari oshishiga imkon beradi;

- milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi;
- milliy iqtisodiyot investitsion jazibadorligi oshishiga ta'sir ko'rsatadi;
- erkin raqobatga asoslangan tadbirkorlik faoliyatining yangi qirralari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi;
- mamlakatning xalqaro hamkorlari yanada ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi vaboshqalar.

EIZ nafaqat o'z territoriyasiga, balki o'z territoriyasidan tashqariga, butun milliy iqtisodiyotga kuchli ta'sir etadi. Bu ta'sir asosan modernizatsiyalashtirish xarakteriga ega va u qator kanal, mexanizmlar orqali amalga oshadi. Bu ta'sirlardan biri - alohida olingan hududning mamlakat darajasida ko'zgatashlanishidir. O'zining yangiligi bilan bu kabi hududlar va ularda tashkil etilgan birinchi xorijiy firmalar milliy tadbirkorlarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida EIZlarning ahamiyati, ularning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalganidan ham ko'rinadi. Hozirgi paytda EIZlar dunyoning barcha qit'a va regionlarida mavjud. Iqtisodiy taraqqiyotga yuz tutgan barcha davlatlar o'z taraqqiyotini jadallashtirish uchun erkinlashtirishning buyuk quroli bo'lgan EIZlar mexanizmidan foydalanishga harakat qilmoqda. Quyidagi jadval ushbu fikrning isbotidir.

Jadval. Erkin iqtisodiy zonalarning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalishi⁸³

Jahon regionlari	Regiondagi davlatlar soni	EIZlari bor davlatlar*	Foiz hisobida	EIZlari yo'q davlatlar**	Foiz hisobida
Rivojlangan davlatlar	32	28	87,5	4	12,5
Lotin Amerikasi	45	41	91,1	4	8,9
Afrika	54	13	24,1	41	75,9
Osiyo	37	26	70,3	11	29,7
Okeaniya	18	11	61,1	7	38,9
O'tish iqtisodiyoti davlatlari	32	24	75,0	8	25,0
Jami	218	143	65,6	75	34,4

Izoh: *hozirgi paytda EIZ bor yoki keyingi o'n yilliklarda bu quroldan foydalangan davlatlar.

**EIZlari yo'q yoki aniq ma'lumot bo'lmagan davlatlar.

Jadvaldan shu ko'rinadiki, dunyo davlatlarining 65,6 foizida, ya'ni 218 davlatdan 143 tasida EIZlar bor. Biz EIZlarni jahon bo'yicha tarqalishini tahlil qilib chiqish uchun dunyo davlatlarini taxminiy ravishda olti regionga bo'lib chiqdik. Bu regionlarning qaysisida EIZ bor - yo'qligini aniqlab chiqdik. EIZlari bor davlatlarning hissasi eng yuqori Lotin Amerikasida va rivojlangan davlatlarda ekan (mos ravishda 91,1 va 87,5 foiz). O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga ham keyingi yillarda bu institut jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Afrikada esa eng kam, ya'ni 24,1 foizni tashkil etadi.

Natijada hududda qo'llanilayotgan ishlab chiqarishni boshqarish, tashkil etish va eksportni rivojlantirish borasidagi yangi usullarni hududdan tashqarida qay tarzda o'rganish samarasini hosil qiladi. Bu samara darrov ko'zga tashlanmaydi. Ammo, vaqt o'tishi bilan uning natijasi yaqqol bo'lib boradi va hokozo. O'rganish kanallardan yana biri mahalliy firmalarning hududda mavjudligining o'zi. Xorijiy firmalar bilan tashkiliy jihatdan yaqinligi muhim firmalararo aloqalarni yaratish hamda mahalliy va xorijiy firmalarni boshqarish va texnologik darajalarining muqarrar ravishda bir - biriga yaqinlashishiga olib keladi. Uchinchi o'rganish kanali texnik mutaxassislar, boshqaruvchilar, ishchilarning firmalararo migratsiya jarayonidir. Miqdor jihatdan bu migratsiya unchalik katta bo'lmashligi mumkin, ammo sifat jihatdan ancha ahamiyat kasb etishi mumkin. Oldin hududdagi ilg'or korxonada ishlab, zamonaviy menejment, ishlab chiqarishni tashkil etish, texnika va texnologiya bilan ishlagan xodim hududdan tashqariga ishga borganida, u ishlab chiqarish

ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalar jahonda ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlarida hamda Janubi - Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida EIZlar ommaviy tarzda tarqalgan. Qolgan regionlarda ham EIZlar tarqalishi juda yuqori, faqatgina Afrika qit'asida, mustamlakachilikdan endigina qutulgan, erkinlikka e'tibor hali yetarli darajaga ko'tarilmagan qit'adagina EIZlarga hozircha e'tiborning kamroqligini ko'ramiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu kabi jahonda keng tarqalgan iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi vosita O'zbekistonda ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"gi PF-60-son farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
2. International journal of applied and fundamental research № 7, 2016.
3. J.Karimqulov, J.Umirzoqov. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb etishda Erkin iqtisodiy zonalarning faolligini oshirish tendensiyalari//Moliya.2017 yil, 1-son. 81-bet
4. "Global Financial Development Report 2015"/The World Bank , 2016 year page-260